

ZAMONAVIY O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYAVIYLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

A.N. Ziyayev

Qo'qon DPI BTM kafedrası dotsenti

Akbaralieva Muslimaxon

BTM ta'lim yo'nalishi 04/22 guruh talabasi

Аннотация:Maqolada zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi masalasi, zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetensiyaviyligini rivojlantirishda o'z ustida ishlashda pedagogik refleksiyaning asosiy xususiyatlari, rivojlanishida uzluksizlik va ularning mo'xijati baen qilingan.

Respublikamizda so'nggi yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Bu borada 2022-2026 yillarga mulljalangan Yangi O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Taraqqiёт strategiyasi qabul qilinishi mamlakatimizni har tomonlama rivojlanishi yo'llarini belgilab berildi. Zero, har bir soha, jumladan, ta'lim sohasida ham ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xalqaro andozalar talablarining qo'yilishi har bir o'qituvchi pedagoglarni o'z kasbiy salohiyatlarini uzluksiz oshirib borish extiyojlarini yuzaga keltirdi.

Zamonaviylik har bir mutaxassisni o'z o'ziga talablar qo'yishi, o'z o'zini baholay olishi, o'zining yutuq va kamchiliklarini tanqidiy tahlil qila olishi, o'ziga nisbatan ham odil, mas'uliyatli bo'lishi hamma vaqt, har bir davrlarda ham kishini kasbiy rivojlanishi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi omili bo'lganligi ma'lum. Ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarga, tarbiyachilarga, pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalarga kasbiy pedagogik mahoratni egallash hamda uni uzluksiz takomillashtirib borish to'g'risida har tomonlama bilim, ko'nikmalar berib borilishi barobarida ularning kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatiga egaligi, zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar va o'quv qurollari)dan foydalanish malakasiga egaligi alohida ahamiyatli masaladir. Mazkur maqola mvzusining dolzarbligi ham o'qituvchilarning o'z ustida ishlashlari ularning kasbiy pedagogik mahoratlarini yanada rivojlantirish pedagogik faoliyat samaradorligiga erishishning muhim omili ekanligini ifodalaydi.

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi masalasi ayni paytda hamma davrlardagidan ham dolzarb masala bo'lib, butun jamiyatning muammosiga aylandi, chunki ertangi kun egalari qanday bilim olishi, ularni kim o'qitishi masalasi nafaqat mutassadilar, balki ota onalar, olimlar, ziyoli ahlining diqqatida turibdi. Albatta bu masalalar mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan so'nggi

yillardagi islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentsiyaviyligini rivojlantirishda o'z ustida ishlashda pedagogik refleksiyaning ahamiyati kattadir.

O'qituvchining doimiy pedagogik faoliyati, mazmunan reflektiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha reflektiv jarayonlarni qamrab oladi. Olimlar refleksiyaning – insonning o'z–o'zini anglashi, kasbiy refleksiyaning esa o'z–o'zini kasbiy faoliyati davomida anglashi, o'qituvchi mahoratida pedagogik refleksiyaning pedagogik kasbiy omilkorlikda o'zini anglashi deb ta'riflaydilar shuning uchun ham uning kasbiy faoliyatida refleksiya muhim rol o'ynaydi. Kasbiy refleksiya jarayonida o'qituvchi o'zi tanlagan pedagogik kasbiy talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqdagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan nisbatlaydi, va «ixtiyoriy ravishda shaxsiy pedagogik mahorat zanjiri»ni hosil qiladi. O'qituvchi pedagogik mahoratning asosiy xususiyatlaridan biri uning rivojlanishida uzluksizlikning mavjudligidir. O'qituvchining «o'z–o'zini kasbiy jihatdan har tomonlama mukammal takomillashtirishi»da kasbiy refleksiyaning deyarli har bir jarayoni, kasbiy faoliyatni qiziqarli qilish uchun muhim ahamiyatga ega: chin ko'ngildan va mehr bilan bajariladigan og'ir mehnat ham kasbiy faoliyatni osonlashtiradi, bu esa refleksiyaning asosiy mazmun va mohiyati asoslaridan biridir.

Kasbiy refleksiya o'qituvchining o'z ustida ishlashida kasbiy faoliyatiga oid yangiliklarni muntazam izlanishida, ijodkorligida namoyon bo'lishi bilan asoslanadi, demak refleksiya o'qituvchining o'z ustida ishlashida asos bo'ladi. O'qituvchining kasbiy refleksiya sifatida pedagogik fikrlashning zarur tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin, u o'qituvchiga o'z kasbiy faoliyatiga tahliliy yondashishni, o'zining pedagogik faoliyatdagi o'rnini aniqlash va rejalashtirilayotgan ishlarda ijobiy natijalarga erishish uchun pedagogik faoliyatni maqsadli o'zgartirishning optimal yo'llari va konstruktiv vositalarini topish imkoniyatini beradi.

O'qituvchining muvaffaqiyatga erishishi, o'z faoliyati natijalaridan qoniqishi, o'qituvchining shakllangan kasbiy pedagogik refleksiya sifatida bog'liq.

Pedagogik refleksiya o'qituvchiga o'z–o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish manbalarini o'z bilimi va imkoniyatlaridan izlab topishda ko'maklashadi hamda uning rivojlanishini ta'minlaydi.

Demak, kasbiy refleksiyaning rivojlanish muammosi o'qituvchining pedagogik kompetentsiyaviyligini oshirish, o'z ustida ishlash ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlilikni taqozo etadi.

Kishilarning o'zaro munosabatlari yig'indisi ta'sirida refleksiya shakllanadi va o'z navbatida, inson faoliyatini ongli ravishda o'zgartirish mazmunini belgilaydi.

Ma'lumki, har qanday kasbiy faoliyat ob'ektni o'zgartirish jarayoni bo'lib, ayni paytda sub'ektning o'zini ham o'zgartirish jarayonidir, Bu esa o'qituvchining muntazam ravishda o'z ustida ishlashini taqozo etadi.

O'qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlangani sari uzluksiz pedagogik kasbiy kompetensiyaviyligini va o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan jarayonlarni quydagicha ifodalash mumkin:

- O'z-o'zini bilish jarayoni
- O'z - o'zini anglash jarayoni
- O'z - o'zini belgilash
- O'z - o'zini rivojlantirish, o'z ustida ishlash jarayoni,
- O'z - o'zini nazorat qilish

O'qituvchining o'z ustida ishlashi va kasbiy rivojlanishidagi muhim jihatlardan biri kabi kompetensiyaga ega bo'lishligi sanaladi. kabi kompetensiyaga ka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, o'qituvchining kasbiy pedagogik kompetensiyaviyligini, uning kasbiy refleksiyasini takomillashtirish asosida o'z ustida ishlash bilangina kompetentlikka erishi mumkin. Kasbiy pedagogik refleksiya nafaqat kasbiy faoliyat, balki, bilim, ko'nikma va malakalarning o'sishini-kompetensiyaviyligini ta'minlaydi hamda o'qituvchini o'z ustida ishlash imkoniyatlariga asos bo'ladi. Shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va kompetensiyaviyligitakomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi o'z-o'zini rivojlantirishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – T. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

2. Ziyayev, A. N. "PRIMARY EDUCATION AND AESTHETIC SENSE TRAINING." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 62-64.

3. Ziyayev, A. N. "PRIMARY EDUCATION AND AESTHETIC SENSE TRAINING." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 62-64.

4. Ziyayev, A. N. "PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE USE OF EDUCATIONAL VALUES IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF STUDENTS." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT,

ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876
16.06 (2022): 86-88.

5. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "ПРАВИЛА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ." Conferencea (2023): 143-148.

6. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЫСЛЕЙ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ЭСТЕТИЧЕСКОМ
ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ." E Conference Zone. 2023.

